




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyul)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



- Tog'-kon sanoati ochiq konlarni ishslash
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 34 043,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 106,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 83,5 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 60,4 % ga va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 10,1 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatning - 7,2 % ga hamda , tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoatida - 3,0 % ga o'sishiga xizmat qildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 448,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,1 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28 420,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlaring 83,5 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da





Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2019- yil yanvar-iyul oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,7 % (6,9 %), o'rta-quyi texnologiyali - 87,1 % (84,5 %) va quiyi texnologiyalisi – 6,9 % (8,3 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 5,3 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 102,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 79,2 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 105,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,0 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,0 %) ni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	2 019,0	2 073,0	102,7
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, tonna.	35 899,9	35 973,0	100,2
Ammoniy nitrat, ming tonna azod	143,86	110,6	76,9
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna.	11,1	38,4	345,7
Kislorod, ming m³.	88,24	90,3	102,3
Temir beton, tonna.	39 426,1	22 998,0	58,3
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	405,26	340,19	83,9
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna.	692,46	599,42	86,6

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, portlandsement (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 102,7%), hamda kaustik soda mahsulotlarida (3,4 m) o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat mahsuloti (2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan- 76,9 %) ishlab chiqarish sanoatida pasayishi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 088,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining - 6,1 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,1 % ga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	5 365,1	6 770,6	1 405,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 298,67	2 215,93	-82,74



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 86,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3% ni) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Yirik sanoat korxonalarini tomonidan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasidagi bajarilgan ishlar hajmi


	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	8 606,4	17 966,0	9 359,6
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	21,1	9,3	-11,8
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanimishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	17 888,9	23 282,3	5 393,4



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 015,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-iyul



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 59,9 % dan 59,6 % gacha kamayganligi qayd etildi

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino - aroq mahsulotlari va pivo 0,4 % (2019- yil yanvar-iyul oylarida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 31,4 % ni, shuningdek, Karmana tumani 18,1 % ni, Xatirchi tumani 13,7 % ni, Qiziltepa tumani 12,3 % ni hamda Navbahor tumani 6,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahri (113,7 %) hamda Konimex tumanida (104,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	2 015,5	100,0	102,5
Navoiy sh.	632,3	31,4	113,7
Zarafshon sh.	122,7	6,1	95,6
<i>tumanlar</i>			
Karmana	364,2	18,1	101,5
Konimex	47,6	2,4	104,0
Qiziltepa	246,9	12,2	101,5
Navbahor	127,9	6,3	91,7
Nurota	121,0	6,0	100,6
Tomdi	18,1	0,9	94,9
Uchquduq	59,2	2,9	94,1
Xatirchi	275,6	13,7	94,1

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 25,6 %, shuningdek, Qiziltepa tumani 18,6 % ni, Xatirchi tumani 17,9 % ni, Karmana tumani 11,7 % ni hamda Navbahor tumani 8,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (113,8) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	815,0	100,0	103,4
Navoiy sh.	208,9	25,6	108,8
Zarafshon sh.	68,1	8,4	103,0
<i>tumanlar</i>			
Karmana	95,5	11,7	97,1
Konimex	24,4	3,0	97,5
Qiziltepa	151,5	18,6	113,8
Navbahor	70,6	8,7	97,8
Nurota	6,8	0,8	86,5
Tomdi	9,9	1,2	97,9
Uchquduq	33,4	4,1	97,0
Xatirchi	145,9	17,9	97,8

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 35,3 %, shuningdek, Karmana tumani 22,4 % ni, Xatirchi tumani 10,8 % ni, Nurota tumani 9,5 % ni hamda Qiziltepa tumani 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida (116,3 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	1 200,5	100,0	101,9
Navoiy sh.	423,4	35,3	116,3
Zarafshon sh.	54,7	4,5	87,8
<i>tumanlar</i>			
Karmana	268,7	22,4	103,1
Konimex	23,1	1,9	111,9
Qiziltepa	95,4	7,9	86,6
Navbahor	57,3	4,8	85,2
Nurota	114,2	9,5	101,6
Tomdi	8,2	0,7	91,5
Uchquduq	25,8	2,2	90,7
Xatirchi	129,7	10,8	90,2



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 761,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.




**Navoiy viloyati hududlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-iyul mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	34 043,6	106,9
Navoiy sh.	28 689,0	107,5
Zarafshon sh.	136,9	89,6
<i>tumanlar</i>		
Karmana	3 571,3	119,0
Konimex	207,1	100,5
Qiziltepa	635,5	106,0
Navbahor	289,9	106,0
Nurota	148,3	102,2
Tomdi	19,2	98,8
Uchquduq	64,4	92,7
Xatirchi	282,0	100,5



Navoiy viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatimiz sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Navoiy shahri (viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmning 84,3 %), Karmana (10,5 %), Qiziltepa (1,9 %), Navbahor (0,8 %), hamda Xatirchi (0,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Tomdi (0,1 %) hamda Uchquduq (0,2 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan choratadbirlar Karmana tumanida (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 119,0 %), Navoiy shahrida (107,5 %) Navbahor (106,0 %) hamda Qiziltepa (106,0 %), tumanlarda sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.


Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da)





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-iyul oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 201,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Xatirchi (100,0 %), Tomdi (100,0%), Nurota (99,6 %) tumanlarida, Zarafshon shahrida (95,1 %) va Navbahor tumanida (65,3 %) kuzatildi.

Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy shahrida (1,6 %), Karmana (16,8 %), Konimex tumanlarida (24,8 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda
(2020- yil 1-avgust holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatimizda 3 150 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 694 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,0%) Navoiy shahriga, 508 tasi (16,1 %) Karmana tumaniga, 396 tasi (12,6 %) Xatirchi tumaniga to'gri kelmoqda.



**Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda
(2020- yil 1-avgust holatiga ko'ra)**





2020- yil yanvar-iyul oyida viloyatimizda 616 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 134 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 21,8 %) Xatirchi tumanida, 105 tasi (17,0 %) Uchquduq tumanida, 78 tasi (12,7 %) Karmana tumanida, 76 tasi (12,3 %) Qiziltepa tumanida, 72 tasi (11,7 %) Navoiy shahrida hamda 51 tasi (8,3 %) Zarafshon shahrida tashkil etildi.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining
sanoat statistikasi bo'limi**

Tel.: (79) 223-33-29